

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Umidabonu Tohirovna Jovbo‘riyeva

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san‘at
fakulteti 231 - amaliy filologiya guruhi talabasi.*

E-mail: ujovboriyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Surxon vohasining taniqli yozuvchisi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida berib o‘tilgan onomastik ko‘lam tarkibiga kiruvchi toponim va antroponimlarning izohi berib o‘tilgan. Toponimika va antroponimikani o‘rganishning ahamiyati haqida so‘z boradi. Ushbu onomastik birliklarning asradagi lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, toponimika, antroponimika, tarixiy metod, tasviriy metod, stilistik metod.

Kirish

O‘zbek nomshunosligi XX asrning ikkinchi yarmi, 60-70 yillarda alohida ilmiy yo‘nalish tariqasida kirib keldi, keyinchali ushbu yo‘nalish soha sifatida shakllana boshladi.

Onomastika – yunoncha “onomastike” so‘zidan olingan bo‘lib, “nom qo‘yish san‘ati” degan ma‘noni anglatadi. 1. Tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi. 2. Muayyan tilda mavjud bo‘lgan barcha atoqli nomlar majmuyi[1.127-128].

Bugungi kunda jahon hamda o‘zbek tilshunosligida toponimika va antroponimikaga oid qator ilmiy izlanishlar olib borildi.

Toponimikaning o‘rganilishining asosiy sababi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu onomastik birlik o‘zida xalqning tarixi, urf-odatlar, madaniy hayoti, siyosiy ijtimoiy jarayonlarini aks ettiradi. Shu boisdan, ularni o‘rganish orqali xalq xo‘jaligi va madaniyati haqida muhim ma‘lumotlarni ochiqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Xalqimizda farzandga ism qo‘yishni asosiy mas‘uliyat deya baholashgan. Ism qo‘yish shaxsning duyoqarashi, orzu-istaklariga bog‘liq ekan, ularni o‘rganish esa xalqning milliy an‘analarini, qadimiy udumlarini, ismning yaralish tarixi, mazmuni kabilarni bilishga katta yordam beradi. Bu jihatni esa onomastika sohasining antroponimika bo‘limi tadqiq etadi.

O‘zbek toponimikasini ilmiy jihatdan o‘rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan.

Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon kabi olimlarning ilmiy izlanishlari toponimikaning fan sifatida shakllanishida alohida e‘tirofga loyiq[4;28].

O‘zbek tilshunosligida toponimika muammolari H.Hasamov, E.Begmatov, S.Qorayev, T.Nafasov kabi olimlarning ishlarida, shuningdek, Z.Do‘simov, B.O‘rinboyev, T.Rahmatov, J.Latipov, T.Enazarov, N.Oxunov. S.Naimov, Y.Xo‘jamberdiyev, X.Xolmo‘minov, O‘.Oripov, A.Turobov, M.Mamedov, A.Otajonova, M.Tillayeva, M.Xudoyberdiyeva,

S.Karimov, S.Bo‘riyev, B.Qilichev kabi olimlar ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilib o‘tganlar[5;16-18].

Jahon tilshunosligida antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning atoqli ot sifatida atash tabiati, lingvomadaniy, nominatsion-motivatsion asoslarini o‘rganish M.E.Rut, A.V.Superanskaya, N.I.Tolstoy, G.R.Aliyev, N.A.Baskakov, G.F.Blagova, A.G.Gafurov, T.J.Januzakov, V.U.Maxpirov, V.A.Nikonov, G.F.Sattarov, A.G.Shayxulov, G.R.Galiullina, O.V.Naumova kabi olimlarning xizmatlari kattadir[4;97].

O‘zbek tilshunosligida antroponimika masalalarini o‘rganish, ularni ilmiy tadqiq qilish ham o‘z tarixiga ega. Bu sohada S.Ibrohimov, E.Begmatov, R.Qo‘ng‘urov, A.Muxtorov, D.Abdurahmonov, E.Qilichev, G‘.Sattarov va boshqalar qator maqola va monografiyalar e‘lon qildilar[4;98].

Quyida ushbu onomastik birliklarni asarda qo‘llanilishi va ifodalanishiga ko‘ra tarixiy, tasviriy va stilistik metodlar asosida tadqiq etib o‘tamiz.

Tadqiqot natijalari.

Surxondaryolik taniqli yozuvchisi Tog‘ay Murodning qalamiga mansub asarlarni tahlil qilar ekanmiz, Surxon vohasining o‘ziga xos turmush tarzi, tabiati, an‘analari, mard, pahlavon insonlarining xarakterini ochib berganligini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

“Oydinda yurgan odamlar” qissasida keltirilgan toponimlarning tarixiylikini va antroponimlarning asarga bergan semantik ruhini tahlilga tortsak.

Bir armon folchiga borish bo‘ldi. Fol ochirish bo‘ldi.

Qoplon bilan Oymomo otlandi. Dahana Obshir qishlog‘iga bordi. Hojar folchi uyini topdi[6;42].

Dahana Obshir – ushbu toponim 2 qisimdan iborat bo‘lib, Dahana fors-tojikcha dahan, ya‘ni “og‘iz” degan ma‘noni anglatadi. Toponimiyada “daraga kiraverish joyi”, “dara”, “daryoning quyilish joyi”, “bo‘g‘iz”, “to‘g‘on” kabi bir qancha ma‘nolarni anglatadi. Shuningdek, mazkur nom Surxondaryo viloyatining Denov tumanida uchraydi. Obshir so‘zi esa quyidagicha ifodalanadi: obi sho‘r bo‘lsa – tuzli suv; obshor – sharshara, oqim[3;95-606]. Asarda ushbu toponim uzoqliq va mashaqqat bilan erishiladigan umid maskani kabi tasvirlanadi.

Undan Surxondaryo suviga o‘tdi. Surxondaryodan suzib chiqib, Zahartepaga o‘rladi.

Zahartepa Oq ilon ko‘ngliga o‘tirmadi!

Oq ilonlar tag‘in yurish qildi. Bobotog‘ga yo‘l oldi[6;50].

Zahartepa Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan qishloq nomi. Bu nom zahar va tepa so‘zlaridan tashkil topgan (Zahartepa – “zaharlangan tepalik”); Zahartepa, balki Shahartepa yoki Zartepa toponimlaridan kelib chiqqandir[3;546].

Bobotog‘ Surxondaryo viloyatida joylashgan tog‘, qishloq nomi. Xalq nutqida bobo katta, ulkan, ulug‘, buyuk, muqaddas. Tog‘ kulti asosida nomlangan: ulug‘ tog‘, katta tog‘, muqaddas tog‘; eng baland cho‘qqili tog‘[2;15].

Vaxshivor adirlari turnaqator bo‘ldi. Qirlari o‘rkach-o‘rkach bo‘ldi. Oxiri ko‘rinmadi.

Adir - qirlar o‘ti bo‘lganicha bo‘ldi. Belga urdi. To‘lqin bo‘lib chayqaldi[6;81].

Vaxshivor Denov va Urgut tumanlaridagi qishloq nomi. Qadimgi eroniy tilda yaxsh (suv tangrisi) var/vor (qal'a) - suv xudosi sharafiga qurilgan qo'rg'on, Vaxshning qo'rg'oni[2;68].

Yuqorida “Oydinda yurgan odamlar” qissasida keltirilgan toponimik obyektlarning nomlarini tahlil qildik. Endi quyida qissada uchragan antroponimlarning izohlanishi, asarda qo'llanilishi haqida so'z yuritamiz.

Shahodat barmog'i bilan Qoplon otamizga sumalak yalatdi. Oymomo onamiz jismandadadil bo'ldi, ruhan-dadil bo'ldi.

Asar bosh qahramonlari obrazini shakllantirishda yozuvchi Qoplon va Oymomo ismlarini tanlab oldi.

Qoplon o'zbekcha ism bo'lib, qoplondek dovyurak, jasur bo'lib o'ssin yoki asad oyi (iyul)da tug'ilgan bolaga nisbatan ushbu ism beriladi[7]. Bunday ismning xalq orasida farzandlarga qo'yilishiga sabab, zoonim bo'lmish qoplon qo'rmas, uzoq umr ko'radigan jonzot sifatida turli xil qarashlar mavjudligidadir. Asarda bu nom mardlik, kuch-quvvat va shijoat ramzini anglatadi. Ammo, voqealar davomida Oymomo va Qoplonning farzand ilinjidagi ojizligi Qoplon ismi o'rtasida o'ziga xos ziddiyat(antiteza)ni keltirib chiqaradi.

Oymomo Oy kosmonim hisoblanib, xalq orasida Oyga nisbatan oymomo talqini ko'p uchraydi. Bu nom kosmonimdan antroponimga ko'chgan[8]. Yozuvchi Oymomo ismini bosh qahramonning go'zalligi, ruhiy olamining pokligi va munisligi kabi sifatlarini ochib berishi uchun tanlab olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Eson qassob gapni cho'rt kesdi:

- Qoplonmi? Bo'lmaydi!

- Qassob, og'ir bo'l, somonday og'ir bo'l.

- Og'ir bo'lsam-bo'lmasam! Uningiz na salomni biladi, na alikni biladi!

Asarda keltirilgan Eson qassob qahramoni Oymomonning akasi hisoblanadi. Qassob uning laqabi.

Eson ismi o'zbekchadan olingan bo'lib, suyukli, erka o'g'il omon-eson bo'lsin ma'nosida keladi. Ism Eson va –boy indikatoridan tarkib topgan. Esonga qassob laqabining berilishi, uning xarakteridagi qat'iyat va biroz dag'allikni aks ettiradi. Shu bilan birgalikda, oila boshlig'i sifatida qaror chiqaruvchi va an'ana, urf-odatlarga sodiq qoluvchi obrazni gavdalandirishda asosiy omil vazifasini bajargan.

XULOSALAR.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, toponimiya va antroponimiya sohalarining tadqiq etilishi orqali xalqimiz tarixi, an'analari, yashash tarizini o'rganishda ahamiyatili o'ringa ega. Xalq og'zaki ijodida mavjud, ammo o'rganilmagan joy nomlari yoki shaxs ismlarini aniqlash tilimiz leksikografiyasining boyishiga katta yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. A.Madvaliyev tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati.–T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008 – 129 b.

2. T Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati.-T: “Yangi asr avlodi”, 2007 – 88 b.
3. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at/tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
4. B.Kilichev. Onomastika [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Bayramali Kilichev – Buxoro: 2023. –180 b.
5. Urganch davlat universiteti. O‘zbek filologiyasi kafedrası. Onomastika fanidan o‘quv – uslubiy majmua. – Urganch: 2022. – 92 b.
6. Tog‘ay Murod.Oydinda yurgan odamlar. – T: “Ziyo nashr”, 2019 – 164 b.
7. <https://adliya.uz/>
8. <https://oyina.uz/>
9. <https://ziyonet.uz/ru>